



## RESPUBLIKAMIZDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

**Abduxamid Bektemirov**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b.,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Farruh Xolboev**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda e'tobor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlari, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar va kichik biznesni barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi zamonaviy yondashuvlar tog'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *iqtisodiyot, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti, o'rta biznes, barqaror rivojlanish, innovatsiyalar*

**Abstract:** *In this article, the aspects that should be paid attention to in the development of entrepreneurship in our country, in particular, small business and private entrepreneurship, the measures that should be implemented to further improve the business environment, and modern approaches to ensure the sustainable development of small business opinions about.*

**Keywords:** *economy, entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, business environment, medium-sized business, sustainable development, innovation*

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены аспекты, на которые следует обратить внимание в развитии предпринимательства в нашей стране, в частности малого бизнеса и частного предпринимательства, меры, которые следует реализовать для дальнейшего улучшения бизнес-среды, а также современные подходы к обеспечению устойчивого развития.

**Ключевые слова:** *экономика, предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, бизнес-среда, средний бизнес, устойчивое развитие, инновации.*

### KIRISH.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblangan kichik va o'rta biznes, mamlakatda iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Chunki, kichik biznes iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismini tashkil etgan holda aholini ish bilan ta'minlash, innovatsiya va umumiyl iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Xususan, kichik va o'rta biznes respublikamizdag'i ishsizlik va kambag'allik kabi ijtimoiy muammolarni hal qilishda hamda yalpi ichki mahsulotni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish natijasida, mamlakatimizda kichik biznes subyektlari soni keskin oshdi (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekistonda yillar kesimida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni (birlikda)<sup>37</sup>**

Mamlakatimizning tashkil etilgan kichik biznes subyektlariga oid yuqoridagi statistik ko'rsatkichlardan ko'rishimiz mumkinki 2023-yilda tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2010-yilga nisbatan 53716 taga ortgan. Bu albatta, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan e'tibor natijasi hisoblanadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotimiz doirasida mamlakatimizda bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha yo'nalishlar kesimida amalga oshirilayotgan strategik chora-tadbirlar tahliliy o'rganib o'tsak.

❖ **Moliyaviy vositalar:** Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy ta'monot masalasida qiyinchiliklar mavjud. Biroq, so'nggi yillarda "peer-to-peer" qarz berish, crowdfunding va fintech yechimlari kabi alternativ moliyalashtirish imkoniyatlari rivojlanishi natijasida sezilarli yaxshilanishlar kuzatildi. Bundan tashqari, bir nechta hukumat dasturlari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorliklar kichik biznes subyektlariga qarzlar, grantlar va kafolatlar taqdim etmoqda.

❖ **Ta'lim va ko'nikmalar rivojlantirish:** Kichik bizneslar o'sishida ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati juda katta. Shu nuqtai nazardan, respublikamizda tadbirkorlik ko'nikmalarini, jumladan, biznes boshqaruvi, raqamli va moliyaviy savodxonlik hamda sohaga xos tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan dasturlar ko'paymoqda. Bu dasturlar, ko'pincha oliy ta'lim muassasalari, nodavlat-notijorat tashkilotlar va xalqaro institutlar bilan hamkorlikda taklif etilmoqda. Bu esa yanada bilimli va mahoratli ishchi kuchini yaratishga xizmat qilmoqda.

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>



❖ **Demografik omillar:** O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng zich aholiga ega mamlakat bo'lib, aholining uchdan bir qismi 30 yoshdan kichik va aholining yarmi qishloq joylarda yashaydi<sup>38</sup>. Har yili o'rtacha hisobda 29 yoshgacha bo'lgan 800,000 kishi mehnat bozoriga qo'shiladi, bu esa ish o'rinalarini yaratishni dolzarb va qiyin vazifaga aylantiradi.

❖ **Siyosat va qo'llab-quvvatlash:** Davlat kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, fiskal, monetar va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir kabi turli moliyaviy vositalar orqali bu sohani qo'llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda<sup>39</sup>. Davlatimiz tomonidan kichik biznes subyektlari uchun qulay muhit yaratish, buyokratik to'siqlarni kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va moliyaviy yordam ko'rsatishga qaratilgan islohotlar tufayli tadbirkorlar o'z bizneslarini boshlash va kengaytirishlari osonlashdi. Erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilayotganligi, soliq imtiyozlari va grantlar kabi tashabbuslar kichik biznes subyektlari soni ortishida alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

❖ **Innovatsiya va barqarorlikka e'tibor:** Dunyo bo'ylab kichik biznes subyektlari uchun innovatsiyalar va barqarorlik muhim farqlanuvchi omillarga aylanmoqda. O'zbekistonda ham kichik biznes subyektlari barqaror biznes yuritishga, raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida innovatsion mahsulot hamda xizmatlarni ishlab chiqarilishga va faqat foyda olishga emas, balki qiymat yaratishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Bu esa mamlakatimizdagi kichik biznes subyektlarining mahsulot va xizmatlari iste'mol hajmining ortishiga va xalqaro raqobat muhitida bardoshlilik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda milliy taraqqiyotni va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada jadal rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etilishi respublikamiz iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarurdir.

1. Mamlakatimizda qabul qilingan tadbirkorlik faoliyatiga oid bo'lgan qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarini o'zida mujassamlashtirgan "Tadbirkorlik kodeksi"ni qabul qilinishi.
2. Faoliyatini dorasida innovatsion yechimlardan foydalanayotgan va o'z biznesga ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini joriy etayotgan tadbirkorlar, xususan, kichik biznes subyektlariga imtiyozlar berish mexanizmini yo'lga qo'yish.
3. Respublikamizda tashkil etilayotgan yangi startap kompaniyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va faoliyat yuritishida ko'maklashish tizimini yaratish.

<sup>38</sup> Small and medium-sized enterprise growth constraints: an uzbek perspective.

<https://www.ebrd.com/documents/ogc/law-in-transition-2021-uzbek-smes.pdf?blobnocache=true>.

<sup>39</sup> Boltaeva, Sh. (2022). Modern Directions of Small Business and Entrepreneurship Development in Uzbekistan.

ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 20(20). извлечено от

[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7633](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7633)



4. Ventur sarmoyalardan va kraufdanding moliyalash mexanizmlaridan foydalanish bo'yicha huquqiy baza yaratish.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosati, kichik biznes subyektlarini yanada samarali va raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi. Ayni jarayonda yuqoridagi takliflarning hayotga tadbiq etilishi esa tez sur'atda o'zgarib borayotgan kichik biznesning rivojlanish manzarasini yadana jadallahishiga, kichik biznes subyeklarining raqamlı transformatsiyasiga, moliyalashtirishning yangi iqtisodiy mexanizmlari joriy etilishiga hamda innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlanmalaridan keng foydalanishiga zamin yaratadi. Bu esa o'z o'rnila respublikamiz milliy iqtisodiyotini ochiq va global bozorlar bilan integratsiyalashishga, barqaror rivojlanish ta'minlanishiga, zamonaviy yondashuvlarni qo'llagan kichik biznes subyektlari soni ortishiga olib keladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Small and medium-sized enterprise growth constraints: an uzbek perspective.  
<https://www.ebrd.com/documents/ogc/law-in-transition-2021-uzbek-smes.pdf?blobnocache=true>.
2. Boltaeva, Sh. (2022). Modern Directions of Small Business and Entrepreneurship Development in Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 20(20). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7633](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7633)
3. Бектемиров, А., 2021. Тадбиркорликни ривожлантириш истиқболлари. Общество и инновации, 2(4/S), pp.434-440.
4. Abdumalikovich, Bektemirov Abdukhamed, and Karimov Amirjon Allam o'g'li. "Supporting Small Business and Private Entrepreneurship." Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521) 2, no. 3 (2024): 102-105.